



“USTOZ – MISLI YONIB TURGAN SHAM”

Primov Xayitmurod Bobomurodovich

Termiz shahar 1-sonli

Bolalar musiqa va san'at maktabi direktori

Annotatsiya: *Ushbu maqola Qadri baland ustozlarimizga bag'ishlangan, ustozlarimizning bizga qilgan mehnatlari haqida. Shuningdek, maqola ustozlarni beqiyos mehnatlari haqida nazariy ma'lumotlar beradi. Mazkur maqoladan san'at sohasida faoliyat yurituvchi mutaxasislar, bu sohada tahsil olayotgan talaba va magistrler hamda ustozlarini ardoglaydigan har bir vatandoshimiz foydalanishi mumkim.*

Kalit so'z: *Rivoyat, Sharif, extirom, Fortepiano, fenomen, san'at.*

Rivoyat qilinishicha, imom Buxoriy (rahmatullohi alayh) xazratlari Makkai Mukarramada ta'lim berayotgan chog'da bir ziyoratchi Buxoroi Sharifdag'i ustozlardan salom va maktub keltiradi. Bu xabarni eshitgan Imom Buxoriy (r.a.) Buxoroi Sharif tomonga yuzlanib, salomiga alik olganlaricha hurmat bajo keltiradilar, so'ngra maktubni ikki qo'llab olib, tabarruk qilib, ehtirom bilan Xatini o'qigan ekanlar Ha, ustoz misli yonib turgan shamga qiyos. O'zi yonib, atrofga nuru ziyo sochadi. Boshqalar ana shu nurdan bahramand bo'ladi. Shu sabab, har bir inson yoshidan, mavqeidan, darajasidan qat'i nazar, saboq bergan ustoz-murabbiyi oldida mudom ta'zimda. Hazrat Navoiy aytganlaridek, Haq yo'lida bizga ming ranju qiyinchilik bilan saboq bergan muallimlarning mashaqqatli mehnatlari haqini hech bir boylik yoki ganjina bilan o'lchab bo'lmaydi. Ularning mehnatlari beqiyos va benazir.

Insonning tilak va xohishlari faqatgina uning mehnati tufayli amalga oshishi mumkin degan serma'no so'zlarga amal qilib kelayotgan Termiz shahridagi 1-sonli bolalar musiqa va san'at maktabining "Fortepiano" mutaxassisligi o'qituvchisi Narzullayeva Nodira Ashurovna kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarni yurtimiz ravnaqiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shadigan hazrati inson qilib kamolga yetkazishdek ezgu maqsad yo'lida munosib mehnat qilib elimiz hurmatiga sazovor bo`lib kelmoqda.

O'z kasbining fidoyisi mana 45 yildirki, bolalar musiqa va san'at maktabida yosh avlodga musiqa olamining sir asrorlarini o`rgatib, ta'lim berib kelmoqda. O'tgan davr mobaynida o'z kasbiga bo'lgan mehru-muhabbati, fidoyiligi orqali qalbi pok bolajonlarni musiqa san'atining asosiy cholq'ularidan biri hisoblangan fortepiano cholq'usining sehrli olamiga olib kirish bilan birga ko`plab iste'dodli yoshlarni san'at olamida o'rinalarini topishlarida o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Quvonarlisi, shogirdlari nafaqat shahar, balki viloyat, respublika hamda Xalqaro miqyosdagi ko`rik-tanlovlarda ishtirok etib faxrli o'rirlarni qo'lga kiritib kelmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ta'birlari bilan aytadigan bo`lsak “Musiqa san`ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San`at bilan oshno bo`lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo`ladi”.



Hayotning go'zalligi, farovonligi, odobligi, qolaversa, istiqlolimizning ravnaqi muallim mehnati bilandir. O'z davrining mashhur pedagogi Abdulla Avloniy "har bir millatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir", - deb yozgan edi. "Ustoz otangdek ulug", degan hikmatda olam-olam ma'no bor. Hatto otani quyoshga qiyos etamiz, ko'klarga ko'tarib maqtaymiz. Ammo otaday ulug' deb nisbat beriluvchi inson bor, bu – ustozdir! Haqiqatan, ota-onaseni voyaga yetkazadi, ustoz esa unib-o'sishing, kamolatga erishishing, ilm-ma'rifat cho'qqilarini zabit etishinga ko'maklashadi. O'z umrini, qalb qo'rini, aql-idrokini, tajribasi va bilimini sening yo'lingga sarf etadi. Yutug'ingni ko'rib quvonadi, muvaffaqiyatsizligindan g'am-anduh chekadi.

Asrlar osha xalqimiz tomonidan qadrlanib kelinayotgan milliy musiqa va san`timiz mustaqilligimiz yillarida yanada qadr topdi. Ayniqsa mamlakatimizda yurtboshimiz tomonidan berilayotgan e'tibor sababli san`atga oshno farzandlarimiz bugungi kunda jahon sahnalari bo`ylab o`zlarining bor iste'dodlarini namoyon etishmoqda. Biz o`qituvchilar yanada samarali mehnat qilishimiz, bu kabi yaratilayotgan sharoitlardan benihoya mamnunmiz deydi faxr va g`urur bilan Nodiraxon Ashurovna. O`qituvchilar haqida so'z borganda albatta so'z mulkinining sultonini bo'lmish Mir Alisher Navoiy bobomizning ushbu so'zlari qulog'ingiz ostida bot-bot jaranglayveradi:

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamat bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Yoki “Otalar so‘zi” kitobida keltirilgan ushbu jumalalar yodingizga tushadi Buzrukmehrdan: - Nima uchun ustozingni otangdan afzalroq hurmat qilasan? – deb so‘radilar - Chunki otam meni o'tkinchi hayotga olib keldi, ustozim esa boqiy hayot bag‘ishladi, - deb javob berdi.

Ha ustoz ana shunday ta'rifu tasnifga loyiq inson. Ular haqida qanchalik to'lqinlanib yozmaylik, baribir kamlik qiladi.



Yanada quvonarlisi jonkuyar va qalbi daryo ustozimiz bu yil o`zlarining 64 yoshlarini qarshi oldilar. Hali ham tetik, kuch va g`ayratga to`la. Doimgidek sevimli jamoasi, mehribon shogirdlari davrasida. Iqtidorli va izlanuvchan yosh avlodni kamolga yetkazishdek oliy maqsad yo`lida izlanib mehnat qilmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. "Ta'lim tarbiyasi" - Muhammad Ali Jorabek
2. "Ustoz va shogird" - Abdulla Qodiriy
3. "Maktab va ta'lim" - Shavkat Rahmon
4. "Ustozlar" - Hamid Olimjon